

O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL BOZORI SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTINING IQTISODIY TAHLILI

Qarshi davlat texnika universiteti

2-kurs talabasi Azimova Rayhon Bunyod qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda iste’mol bozorining mikroiqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Unda iste’molchilarning tanlovi va bozordagi xatti-harakati, talab hamda taklif nisbatining shakllanishi, narxlarning belgilanishi va raqobat muhiti kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, aholining daromadlari, iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj, tovarlarning sifati va ularning bozor rivojiga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada xususiy sektor faoliyatining kengayishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda shu orqali O‘zbekiston iste’mol bozorini yanada rivojlantirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Iste’mol bozori, mikroiqtisodiyot, talab va taklif, narx, raqobat, iste’molchi xatti-harakati, daromad darajasi, bozor muvozanati, xususiy sektor, iqtisodiy o‘shish.

Kirish: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirish, aholining yashash farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ushbu jarayonda iste’mol bozori mamlakat iqtisodiy tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida rivojlanib bordi. Iste’mol bozori nafaqat aholining tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabini qondiradi, balki ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini faollashtiradi va iqtisodiy o‘shishga kuchli turtki beradi.

Bozorning mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi, bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari, ijobiy va salbiy jihatlari o‘rganish bozor munosabatlariga o‘tish zaruratini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Hozirgi davrda ko‘plab davlatlar boshqa iqtisodiy tizimlarga nisbatan bozor iqtisodiyotini samaraliroq deb hisoblab, ushbu tizimga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish esa murakkab jarayon bo‘lib, u ma’lum bosqichlar, tamoyillar va yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi. Shu sababli o‘tish davrining mazmuni, o‘ziga xos belgilari va asosiy vazifalarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O‘zbekistonda iste’mol bozorining taraqqiyoti aholining daromad darajasi, talab va taklif o‘rtasidagi nisbat, narxlar barqarorligi, inflyatsiya ko‘rsatkichlari, import mahsulotlari hamda mahalliy ishlab chiqarish hajmi bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari, davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat ham iste’mol bozorining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mamlakat iste’mol bozorining hozirgi holatini, undagi zamonaviy yo‘nalishlarni, mavjud

muammolarni va kelgusi rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: “Bozor” tushunchasi iqtisodiy resurslarning narxlar orqali taqsimlanishini o‘rganishda muhim nazariy ahamiyatga ega. Bozor tovarlarni sotish, ayirboshlash va iste‘molchiga yetkazish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Tovar-pul munosabatlari tizimida bozor asosiy bo‘g‘inlardan biri hisoblanib, u ijtimoiy mehnat taqsimoti sharoitida mustaqil ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni shakllantiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti nisbatan keyinroq shakllangan bo‘lsa-da, bozorning o‘zi qadimdan mavjud bo‘lgan. Dastlab bozor xaridor va sotuvchilar savdo bitimlarini amalga oshirish uchun uchrashadigan joy sifatida tushunilgan. Keyinchalik esa bozor faqatgina savdo qilinadigan makon emas, balki tovarlar, xizmatlar, narxlar, talab va taklif o‘zaro bog‘lanadigan murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida qarala boshlandi. Bozor jarayonlarida sotuvchi va xaridorlar bevosita ishtirok etishi mumkin, ayrim hollarda esa ularning munosabatlari vositachilar, dallollar yoki maklerlar orqali amalga oshiriladi. Xaridor va sotuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar turli shakldagi bozorlar orqali yo‘lga qo‘yiladi. Bu bozorlar mahsulot turi, savdo hajmi, ishtirokchilar tarkibi va iqtisodiy vazifalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Shunday ekan, bozor iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi, ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi manfaatlarini bog‘lovchi muhim vosita sifatida amal qiladi.

Bozor nazariyasining rivojlanishida klassik iqtisodiy maktab vakillarining o‘rni katta bo‘lgan. Ular tovar narxining shakllanishi, talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat, shuningdek, ijtimoiy mahsulotning bozor kon’yunkturasi bilan bog‘liqligi kabi masalalarni ilmiy jihatdan tahlil qilganlar. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida klassik iqtisodiy qarashlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Jan Batist Sey bo‘lib, u bozor munosabatlari va iqtisodiy muvozanat masalalarini chuqur o‘rgangan¹.

Demak, bozorning amal qilishi bozor mexanizmining asosiy elementlari baho, talab va taklifga bo‘ysunadi. Turli xil tovarlarga bo‘lgan talab va taklif faqat bozorda shakllanadi. Taklif ishlab chiqarishning imkoniyatlari bilan belgilanadi, talab esa shu tovarga bo‘lgan zaruriyat, uni xarid qilish uchun haq to‘lash imkoniyatlari bilan shakllanadi. Har qanday tovar zaruriyat bo‘lsa-da, pul bo‘lmasa uni xarid qilish mumkin emas, demak, talab ham bo‘lmaydi. Talab va taklifning nisbati qarab bahoning darajasi belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Istemol bozorining tahlili haqida ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Xususan Xorij olimlari Istimol bozori haqida ko‘plab fikrlar mavshud.

¹ M. Rasulov. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent. 2019. B-65

Shulardan biri bo‘lgan Adam Smit “Millatlar boyligi” asarida: “Bozor mexanizmi bu ko‘rinmas qo‘l, u jamiyatdagi barcha iqtisodiy jarayonlarni tartibga soladi” – deb ta’kidlagan.

Karl Marks esa “Iste’mol har qanday ishlab chiqarishning yakuniy nuqtasidir” deya ta’riflagan². Ta’riflarga qaraganda iste’mol bozori ishlab chiqarilgan mahsulotning oxirgi manzili aynan iste’mol bozori hisoblanadi. Agar iste’mol bozorida mahsulot sotilmasa, ishlab chiqarish ham izdan chiqadi faoliyatini rag‘batlantiradi hamda iqtisodiy o‘shishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, iste’mol bozori ham aslida talab va taklif asosida o‘z-o‘zini muvozanatlashtiradi. Bular tahlil qilib O‘zbekistonda iste’mol bozorining mikroiqtsoidiy jihatdan tahlil qilish ancha murakkab hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning iqtisodiy islohotlarga oid asar va nutqlarida ichki iste’mol bozorini himoya qilish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga alohida urg‘u beriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning yagona, barcha mamlakatlarga bir xil mos keladigan universal qonuni yo‘q. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan tarixi, ijtimoiy hayoti, milliy qadriyatlari va an‘analari mavjud. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni ham har bir davlatda turlicha kechadi. Ammo ularning barchasida umumiy asos bo‘luvchi tamoyillar mavjud bo‘lib, ular bozor iqtisodiyoti tizimini barqaror shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy taraqqiyotda mulkchilik masalasi birinchi o‘rinda turadi. Chunki moddiy ne‘matlarni yaratish, ulardan foydalanish va ularni iste’mol qilish xususiy mulk bilan chambarchas bog‘liq. Xususiy mulkka asoslangan iqtisodiy munosabatlar kishilarni faolroq ishlashga undaydi, tashabbuskorlikni kuchaytiradi va raqobatni rivojlantiradi³. Bozor sharoitida xususiy mulk asosiy o‘rinni egallaydi, davlat mulki esa iqtisodiyotning poydevorini emas, balki qo‘shimcha sektorini tashkil etadi. Xususiy mulkning shakllari ko‘p bo‘lishi mumkin: individual mulk, oilaviy mulk, shirkat yoki korxonalar mulki, qo‘shma mulk, aksiyadorlik mulki va boshqalar.

Muhokama va natijalar. Bozor iqtisodiyotida turli shakllardagi mulklar baravar amal qiladi. Odamlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiy faoliyat deyiladi. Bunga ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq, tadbirkorlik, transport va boshqa ko‘plab yo‘nalishlar kiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faoliyat erkin amalga oshiriladi. Xususiy mulk mavjudligi tufayli odamlar o‘z mablag‘larini o‘zlari istagan soha va yo‘nalishga yo‘naltirish huquqiga ega bo‘ladi⁴. Iqtisodiy faoliyat erkinligi deganda, odamning o‘z xohishiga ko‘ra ishlab

² Karl Marks “Das Kapital” Berlin. 1867. B-67

³ B.T. Salimov, M.S. Yusupov. Mikroiqtsodiyot. Toshkent. 2021. B-364

⁴ Erkin egamberdiyev. Mikroiqtsodiyot. Toshkent. 2015. B-124

chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki tovar ayirboshlash bilan shug'ullanish imkoniyati tushuniladi. Bozor iqtisodiyotida hech kim "faqat shu sohada ishlashing kerak" deb majburlanmaydi. Shu bilan birga, erkinlik umumiy qonunlar asosida tartibga solinadi, ya'ni jamiyat manfaatlariga zid faoliyatga ruxsat berilmaydi. Bozor iqtisodiyotining eng muhim tamoyillaridan yana biri iqtisodiy tenglikdir. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar (yakka tartibdagi tadbirkor, korxonalar, shirkat, jamoa xo'jaligi yoki davlat tashkilotlari) bozor sharoitida bir xil huquqqa ega bo'ladi. Ular o'zaro raqobat asosida ishlaydi, hech bir subyekt boshqasidan ortiq yoki kam huquqqa ega bo'lishi mumkin emas.

Bozor iqtisodiyotida raqobat keng qamrovli va ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari va tarmoqlarida yuz beradi. Raqobat kurashiga bardosh bera oladigan shaxs bozor taraqqiyotiga ko'p hissa qo'sha oladi. Raqobat kurashining asosiy mazmuni xaridorlarni o'ziga ko'proq jalb etish sharoitini yaratishdir.⁵ Chunki har bir tadbirkorning molini sotib oladigan xaridor ko'p bo'lsa, u sotish muammosini tezroq hal eta oladi, ishi tezlashadi va yuqori foyda oladi. Sarf qilingan sarmoya qancha tez qaytib, tez harakatda bo'lsa, shunchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarishga va ko'proq sotishga imkoniyat yaratadi. Xaridor uchun kurashdagi eng muhim narsa zarur tovarni yoki xizmatni o'z vaqtida va ko'proq ishlab chiqarish, shuningdek, xaridorga tezroq yetkazishdir. Ushbu jarayonda boshqalarga nisbatan oldinroq muvaffaqiyat qozongan shaxs, albatta, bu kurashda g'alaba qozonish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar va bir xil xaridorlar o'rtasidagi kurashdir. Shu sababli ham raqobatdagi harakatning keng qamrovi bozor uchun, tovarni muvaffaqiyatli sotish uchun olib borilgan kurashdir. Raqobat kurashi iqtisodiy faoliyatning boshqa soha va tarmoqlarida ham yuz beradi. Masalan, xom ashyo uchun kurashni olaylik. Ma'lumki, bu ishlab chiqarishga katta ahamiyat kasb etadi⁶. Kerakli xom ashyoni o'z vaqtida, kerakli miqdor va turda olish uchun harakat qilish umumiy muvaffaqiyat uchun zarur shartdir. Shuningdek, barkamol, yuqori samarali xom ashyo manbalarini qo'lga kiritish, materiallar, unumli va arzon energiya manbalari uchun kurash ham katta o'rin egallaydi. Bularning yana bir turi ishchi kuchini ta'minlashdir. Yuqori malakali, tajribali ishchi va xodimlarga ega bo'lish, ayniqsa, tadbirkor va sarmoyador uchun juda kerak. Yetarli miqdorda shunday xodimlarga ega bo'lish va ularni saqlab qolish, kasaba uyushmalariga ta'sir ko'rsatish uchun kurash raqobatda muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqobatning asosiy negizida shaxsiy manfaat yotadi. Aynan shaxsiy manfaat iqtisodiy subyektlarni faol harakat qilishga, o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishga va bozorda ustunlikka erishishga undaydi.

⁵Bakiyeva I.A. Mikroiqtisodiyot. Toshkent. 2017. B-254

⁶M.Q. Pardayev, B.I Isroilov "Iqtisodiy tahlil" Toshkent 2001. B-152

Har bir iqtisodiy birlik o‘z manfaatini ko‘zlagan holda faoliyat yuritadi. Masalan, tadbirkorlar ko‘proq foyda olishga, kamida esa zarar ko‘rmaslikka intiladilar. Moddiy resurslarga egalik qiluvchi shaxslar yoki korxonalar esa o‘z resurslarini sotish yoki ijaraga berishda imkon qadar yuqori narx belgilashga harakat qiladilar. Ish kuchi egalari ham mehnatining hajmi va murakkabligiga mos ravishda ko‘proq daromad olishni xohlaydilar. Shu bilan birga, ularning barchasi xaridor sifatida bozorda mahsulot va xizmatlarni arzonroq narxda sotib olish tarafdori bo‘ladi. Shaxsiy manfaatdorlik bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. U bozor ishtirokchilarining faoliyatini muayyan tartibga solib turadi. Biroq manfaatlarning keskin to‘qnashuvi ayrim hollarda iqtisodiy munosabatlarda nomutanosiblik va tartibsizliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adam Smit “Millatlar boyligi”. III kitob. London. 1977. B-45
2. Karl Marks “Das Kapital” Berlin. 1867. B-67
3. M.Q. Pardayev, B.I Isroilov “Iqtisodiy tahlil” Toshkent 2001. B-152
4. Bakiyeva I.A. Mikroiqtisodiyot. Toshkent. 2017. B-254
5. B.T. Salimov, M.S. Yusupov. Mikroiqtisodiyot. Toshkent. 2021. B-364
6. M. Rasulov. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent. 2019. B-65
7. Erkin egamberidiev. Mikroiqtisodiyot. Toshkent. 2015. B-124
8. Ziyouz.net.